



2-TOM, 5-SON

MONETAR SIYOSATNING MAZMUN-MOHIYATI VA IQTISODIYOTNI
TARTIBGA SOLISHDA TUTGAN O'RNI

Qarshiyev Muzaffar Akbar o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti

qarshiyevmuzaffar984@gmail.com

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflatsion targetlash rejimi ekanligini ko‘rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflatsiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta’minlaydi.

Shavkat Mirziyoyev

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan monetar siyosat ya’ni pul-kredit siyosatiga bog‘liqliga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida davlatni tartibga solishdagi monetar siyosatning o‘rmini keskin ko‘paytirish lozim ekanligi xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Pul-kredit siyosati, foiz stavkasi, inflatsion targetlash, ochiq bozordagi operatsiya, majburiy zaxira

CONTENT OF MONETARY POLICY AND ITS ROLE IN REGULATING THE ECONOMY

ABSTRACT

The article mentions that the economic development of our country largely depends on the monetary policy, i.e. the money-credit policy, and that the role of the monetary policy in the regulation of the state should be dramatically increased in the process of fundamental economic reform.

Keywords: Monetary policy, interest rate, inflation targeting, open market operation, reserve requirement



2-TOM, 5-SON

Mavzuning dolzarbligi: Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda respublikamizda tarif va pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish imkonini berdi, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minladi. Shu bilan birga global moliya-iqtisodiy tizimidagi murakkab va tez o'zgaruvchan, shuningdek, valyuta munosabatlarini tartibga solishni liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlashga qaratilgan monetar siyosatning amaldagi instrumentlarini tubdan qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda[1].

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari etib belgilangan:

inflatsiyaning doimiy amal qiladigan maqsadini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish;

pul bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solish va inflatsion jarayonlarni boshqarish maqsadida pul-kredit siyosatining keng qamrovli instrumentlarini qo'llash;

pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar qabul qilish maqsadida ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda batafsil makroiqtisodiy tahlil va proqnozlarni amalga oshirish;

pul-kredit siyosati maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazish, makroiqtisodiy holatning oldindan ko'ra bilinishini ta'minlash va bozor ishtiroychilari ishonchini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Markaziy banki inflatsion targetlash rejimiga to'liq o'tish uchun sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minasin, xususan:

muvofiglashtirilgan monetar-fiskal va monopoliyaga qarshi siyosat yuritish; raqobatdosh bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish hamda tovarlar va xizmatlarning to'laqonli bozorlarini shakllantirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni davom ettirish;

monopoliyaga qarshi kurashish va narxlarni tartibga solishning zamonaviy usullariga o'tishga, shuningdek, ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirishga yo'naltirilgan tartibga solinadigan narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish; jamg'armalarni investitsiyalarga transformatsiya qilish uchun moliyaviy vositachilik institutlarini rivojlantirish maqsadida bank tizimi hamda moliya bozorlarini isloh etish, shuningdek, moliyaviy oqimlarni uzoq muddatli rejorashtirish uchun imkoniyat yaratish[2].



2-TOM, 5-SON

Pul-kredit siyosati - bu davlatning umumiy pul massasini nazorat qilish va iqtisodiy o'sishga erishish uchun harakatlar majmuidir. Pul-kredit siyosati strategiyalari foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqish va bank majburiy zaxiralarini o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Pul-kredit siyosati odatda kengaytiruvchi yoki qisqaruvchi sifatida tasniflanadi.

Davlatning kredit tizimi ustidan ham ma'lum nazorat o'rnatishi muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun pul emissiya qilish huquqiga ega bo'lgan va pul muomalasini tartibga soladigan Markaziy Bank tashkil etilgan. Bundan tashqari, davlat ixtiyorida bir qancha ixtisoslashgan banklar bo'lishi lozim.

Oqibatda, ishbilarmonlarning bank operatsiyalarini kredit va moliyaviy tizim orqali tartibga solish imkoniyati vujudga keladi.

1-jadval

Monetar siyosat vositalarining turlari¹

Bevosita vositalar	Bilvosita vositalar
Foiz stavkalarini chegaralash	Ochiq bozordagi operatsiyalar
Maqsadli kreditlar	Majburiy zaxiralar
Har bir bank uchun kreditlash miqdorini belgilash	Veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi
Har bir bank uchun hisobga olish me'yorlarini belgilash va boshqalar	Qisqa muddatli depozitlar mexanizmi Kredit auktsionlari Lombard va overdraft mexanizmlari Valyuta svoplari va bevosita oldi-sotdi operatsiyalari

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, pul-kredit siyosatini amalga oshirishda bilvosita vositalar ixtiyoriy ravishda qo'llanilishi va sonining ko'pligi jihatidan bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob berishi bilan bevosita vositalarga nisbatan afzalligi yaqqol ko'rinoqda.

Shu bois hozirgi paytda jahonning eng taraqqiy etgan davlatlarida ham pul-kredit siyosatining bilvosita vositalarini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

¹ H.P.Abulqosimov, O.Y.Xamrayev. "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish". O'quv qo'llanma. Iqtisod-moliya. Toshkent. 2014y.





2-TOM, 5-SON

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Sh.M.Mirziyoyev.“Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.PQ-3272-son.2017y.
- 2.Sh.M.Mirziyoyev.“Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”.PF-5877-son.2019y.
- 3.H.P.Abulqosimov, O.Y.Xamrayev.”Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish”.O‘quv qo‘llanma.Iqtisod-moliya.Toshkent.2014y.

